O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Rektor ____________ I.Tuxtasinov

2025-yil "28" august

Ro'yhatga olindi: *BD60230100-MSHK1404*

2025-yil "28" august

# MAMLAKATSHUNOSLIK FANINING
# O'QUV DASTURI

**2-kurs**

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Ta'lim yo'nalishi:** 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili)

**Toshkent-2025**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>MSHK1404</td><td>O'quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>4</td><td colspan="2">ECTS Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta'lim tili<br>ingliz</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2/4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta'lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Mamlakatshunoslik</td><td>48</td><td>72</td><td>120</td></tr>
<tr><td>2.</td><td colspan="5">
I. Fanning mazmuni<br>
Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy sharti bo'lgan lingvo-madaniy kompetensiya, ya'ni tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, geografiyasi, siyosiy-iqtisodiy tizimi, ma'muriy hududiy va davlat tuzilishi, iqtisodiy ijtimoiy negizlari kabi sohalarda chuqur bilim berish hamda o'zlashtirililgan bilimlarni kommunikatsiya jarayonida qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat<br>
Fanning vazifasi – talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarga nisbatan kommunikativ yondashuv asosida muayyan leksik va stilistik birliklarni o'z o'rnida qo'llagan holda muloqot jarayonida tilni faol qo'llashga o'rgatishdir.<br>
Xorij tajribasiga muvofiqligi<br>
Mazkur fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 87-sonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan reytinglarda ТОП-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Avstraliya milliy universiteti (Australian National University) ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda tuzildi.<br>
https://programsandcourses.anu.edu.au/2026/program/BIR<br><br>
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)<br>
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:<br>
1. Mapping the Anglosphere: English-Speaking World Today (2 hours)<br>
Ushbu ma'ruza "Anglosfera" tushunchasini tanishtiradi. Talabalar ingliz tilining Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiyada qanday tarqalganini, uning kolonizatsiya, savdo, diplomatiya va ta'lim bilan bog'liqligini o'rganadilar. Asosiy mavzular: World Englishes (jahon ingliz
</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | 5. Smith, M., & McCulloch, T. (2013). *Britain and the United States: An introduction to comparative studies*. Routledge<br>6. Mein Smith, P. (2012). *A concise history of New Zealand* (2nd ed.). Cambridge University Press.<br>7. Baylis, J., Smith, S., & Owens, P. (Eds.). (2019). *The globalization of world politics: An introduction to international relations* (9th ed.). Oxford University Press.<br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.britishcouncil.org<br>2. http://www.bbc.co.uk<br>3. https://www.tandfonline.com/ - Taylor & Francis Online<br>4. http://encyclopedia.farlex.com<br>5. http://en.wikipedia.org<br>6. http://www.usa.gov<br>7. https://programsandcourses.anu.edu.au/2026/program/BIR |
| 7. | O‘quv dasturi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 4 - iyun dagi yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan ( 10 - sonli bayonnoma). |
| 8. | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Sh.Usmonova – O‘zDJTU Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi dotsenti, PhD<br>D.Xamidova – O‘zDJTU Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o‘qituvchisi<br>Sh.Qosimova – O‘zDJTU Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>N.Rasulova – O‘zDJTU, Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi dotsenti, PhD.<br>Sh. Sultonova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO ‘TAU Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, PhD. |

Ingliz filologiyasi fakulteti dekani ____________ Yu.Azzamov

Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasi mudiri ____________ Sh.Usmonova

Universitet axborot resurs markazi direktori ____________ S.Kayumova



| | |
|---|---|
| | tillari), til imperializmi, lingvistik geografiya va ingliz tilining global jamiyatlarga ta’siri.<br>**2. Foundations of the UK: From Monarchy to Modern Day (2 hours)**<br>Ushbu dars Buyuk Britaniyaning qadimiy davrlardan Britaniya imperiyasigacha bo‘lgan tarixiy rivojlanishini yoritadi. Asosiy mavzular: Magna Carta, monarxiya, kolonizatsiya, zamonaviy boshqaruv, parlament roli, ijtimoiy tabaqalanish, to‘rt millat va Brexitdan keyingi identitet.<br>**3. The USA: The American Dream and Its Roots (2 hours)**<br>Bu ma’ruza Shimoliy Amerika mahalliy xalqlari va mustamlakachilik davridan boshlab mustaqillikka va global superqudratga aylanishgacha bo‘lgan AQSh tarixini qamrab oladi. Asosiy voqealar: ta’sis hujjatlari, Fuqarolar urushi, immigratsiya to‘lqinlari va Fuqarolik huquqlari harakati. Talabalar “Amerikan orzusi” miflari va haqiqatlarini, hamda rang-barang jamiyat tuzilishini tahlil qiladi.<br>**4. Canada: A Nation Between Two Worlds (2 hours)**<br>Ushbu dars Kanadaning tubjoy xalqlardan boshlab fransuz va brit koloniya davri, Konfederatsiya va zamonaviy ko‘p millatli jamiyatgacha bo‘lgan tarixini ko‘rib chiqadi. Fransuz–ingliz munosabatlari, milliy birlik, tubjoy xalqlar bilan munosabatlar va ikkitillik siyosati asosiy e’tibor markazida. AQSh bilan solishtirish orqali turli model va yondashuvlar tahlil qilinadi.<br>**5. Australia & New Zealand: Stories of the Southern Hemisphere (2 hours)**<br>Bu ma’ruza Avstraliya va Yangi Zelandiyaning kolonial va tubjoy merosini, qamoqxona koloniyalari, Federasiya, Anzak ruhi, immigratsiya, Maorilar tarixi, Vaytangī bitimi va mustaqillikni yoritadi. Atrof-muhit va madaniy o‘ziga xoslik, Tinch okeani hududidagi identitet hamda Yangi Zelandiyaning yadrosiz siyosati va tinchlikparvar missiyalari ham ko‘rib chiqiladi.<br>**6. Comparing National Identities: UK, USA, Canada, Australia, NZ (2 hours)**<br>Ushbu dars besh mamlakatning milliy identitetini tarix, madaniyat va xilma-xillik nuqtai nazaridan solishtiradi. Talabalar kolonizatsiya, mustaqillik, tubjoy meros, davlat ramzlari va ko‘p millatli qadriyatlarni o‘rganadi. Guruh taqdimotlari, madaniy xilma-xillik bo‘yicha munozara va umumiy qiymatlar haqidagi yakuniy muhokama talabalar o‘rtasida stereotiplarni qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladi.<br>**7. Economies and Innovation in the English-Speaking World (2 hours)**<br>Ushbu ma’ruza Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya va Yangi Zelandiyaning iqtisodiy tizimlarini solishtiradi. Moliyaviy xizmatlar, |

texnologiya, tabiiy resurslar va savdo sohalari asosiy drayver sifatida ko‘rib chiqiladi. Innovatsiya, asosiy eksport turlari va global iqtisodiy tendensiyalar ham tahlil qilinadi.

**8. Education and Innovation: Systems, Access, and Global Rankings (2 hours)**

Bu ma’ruza ta’lim tizimlarini ta’lim falsafasi, tuzilma, moliyalashtirish va xalqaro reytinglar nuqtai nazaridan solishtiradi. Maktab madaniyati, oliy ta’lim, talaba mobilligi va global ta’lim tendensiyalari, shuningdek nufuzli universitetlar va innovatsion muhit muhokama qilinadi.

**9. The Media Landscape: Influence and Global Reach (2 hours)**

Ushbu dars Britaniya va AQShdagi asosiy matbuot, telekanallar va raqamli platformalarni tahlil qiladi. Ingliz tilidagi media mahalliy va global miqyosda qanday ta’sir ko‘rsatishi, jamoatchilik fikrini shakllantirish, madaniyat va kommunikatsiya rollari o‘rganiladi.

**10. Everyday Life, Social Customs, and Sport in English-Speaking Countries (2 hours)**

Ma’ruza kundalik hayot, an’analar, odob-axloq qoidalari, oilaviy tuzilma va gender rollarini, shuningdek, sportning ijtimoiy odatlar va milliy identitet shakllanishidagi rolini o‘rganadi. Talabalar kundalik va jamoaviy hayotdagi madaniy qadriyatlarning namoyon bo‘lishini tahlil qiladi.

**11. Festivals, Food, and Cultural Symbols (2 hours)**

Ushbu ma’ruza taomlar, bayramlar va madaniy ramzlarning milliy identitetdagi o‘rni haqida. Dunyoning turli burchaklaridagi o‘ziga xos milliy taomlar, yirik festival va ularning ma’naviy-ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. “Qaysi an’ana?” viktorinasida talabalar festival va taomlarni tegishli mamlakatlar bilan bog’laydilar.

**12. Arts Across Cultures: Literature, Music, Film and Beyond (2 hours)**

Bu ma’ruza ingliz tilida so‘zlashuvchi dunyoda adabiyot, musiqa va kino hamda vizual va sahna san’ati rolini o‘rganadi. Shakespeare’dan zamonaviy yozuvchilargacha bo‘lgan adabiy meros, Hollywood, Britaniya drama, Kanada indie-kino industriyalari va musiqa janrlari madaniy identitetni qanday shakllantirishi tahlil qilinadi.

**III. Seminar mashg’ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

**Seminar mashg’ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Mapping the Anglosphere: English-Speaking World Today (2 hours)
2. Foundations of the UK: From Monarchy to Modern Day (2 hours)
3. The USA: The American Dream and Its Roots (2 hours)



tushuncha va terminlarning mohiyatini to‘g’ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to‘g’ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo‘ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg’ulotlari topshirig’ini mustaqil yondashgan holatda to‘g’ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, amaliy muammo bo‘yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma’lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba’zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to‘g’ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo‘ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg’ulotlari topshirig’ini mustaqil yondashgan holatda to‘g’ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, amaliy muammo bo‘yicha mustaqil mushohada yuritishda ma’lum ilmiy-nazariy xatolarga yo‘l qo‘yadi, tayanch tushncha va terminlarning mohiyatini to‘liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo‘lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko‘nikmasi to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo‘yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Bakirova X.B, Xakimov X.I. (2016), *“Country Studies”*. Toshkent
2. Muminov A., Tuxtasinov I. (2015), *“Country Study”*. Tashkent.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

6.

1. David W. Blight. (2012), *American History*, Harvard University Press
2. Bill Bowler and Lesley Thompson, (2005), *Timesaver British History Highlights Oxford Cambridge.*
3. Roberts, J. M. (1979). *The Penguin history of the world.* Penguin Books.
4. Воронцова Е.А., (2015), *Introduction to Country Studying: The United Kingdom of Great Britain and Nothern Ireland.* Барнаул.

| | |
|---|---|
| | esse va maqolalar yoza olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. tili o‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi, geografiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy atlas, statistik jadvallar, siyosiy, tabiiy va iqtisodiy xaritalar bilan ishlash ***(malaka)***. |
| 4. | **VI. Talim texnologiyalari va metodlari:**<br>• aqliy hujum;<br>• interfaol suhbat;<br>• keys-stadilar;<br>• besh minutlik essey;<br>• assesment;<br>• bahs-munozara;<br>• muammoli vaziyat;<br>• charxpalak;<br>• beshinchisi ortiqcha;<br>• hayoliy xarita;<br>• guruhlarda ishlash;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>• yo‘naltiruvchi matn; |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog‘risida Nizom”ga ko‘ra fanga ajratilgan kredit beriladi.<br>Talabalarning bilimini baholash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 (a’lo) baho** – talaba amaliy mashg‘ulotlari topshirig‘ini mustaqil yondashgan holatda to‘g‘ri bajaradi, amaliy muammo bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to‘g‘ri tahlil etish asosida ma’lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch |



| | |
|---|---|
| | 4. Canada: A Nation Between Two Worlds (2 hours)<br>5. Australia & New Zealand: Stories of the Southern Hemisphere (2 hours)<br>6. Comparing National Identities: UK, USA, Canada, Australia, NZ (2 hours)<br>7. Economies and Innovation in the English-Speaking World (2 hours)<br>8. Education and Innovation: Systems, Access, and Global Rankings (2 hours)<br>9. The Media Landscape: Influence and Global Reach (2 hours)<br>10. Everyday Life, Social Customs, and Sport in English-Speaking Countries (2 hours)<br>11. Festivals, Food, and Cultural Symbols (2 hours)<br>12. Arts Across Cultures: Literature, Music, Film and Beyond (2 hours)<br>Seminar mashg’ulotlari multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o‘tkazilishi zarur. Mashg’ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:**<br>Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan.<br>Mustaqil ta’limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlami HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.<br>- o‘tilgan mavzuni chuqur o‘rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;<br>- amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko‘rish, vaqtdan unumli foydalanish;<br>- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;<br>- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo‘ymasligi;<br>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilganl vazifalami o‘z vaqtida bajarishi. |

**Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Origins of the United Kingdom: From Tribal Kingdoms to a Global Power
2. Crown and Conquest: Dynasties from the Anglo-Saxons to the Normans
3. Britain's Physical Landscape: Geography, Resources & Regional Diversity
4. Parliamentary Democracy: Evolution of British Political Institutions
5. Education Across the UK: England, Scotland, Wales & Northern Ireland Compared
6. Cultural Icons & Festivals: Art, Literature, Music and Traditions in Britain
7. Founding a Nation: From Thirteen Colonies to American Independence
8. The U.S. Constitution & Federal System: Branches, Bills & Supreme Court
9. American Biomes: Geography, Natural Wealth & Regional Identities
10. Education in the USA: Public, Private, and Higher-ed Pathways
11. American Holidays & Cultural Symbols: From Thanksgiving to the Super Bowl
12. Sporting Heritage: Baseball, Basketball, Football and Olympic Legacies
13. Confederation to Multiculturalism: Canada's Nation-Building
14. Parliament & Provinces: Canada's Federal Structure Explained
15. Maple Leaf Landscapes: Geography, Resources & Northern Realms
16. Canadian Schools & Universities: Bilingualism and Access
17. Arts & Identity: Indigenous Reconciliation, Literature and Film
18. Festivals & Sports: Hockey, Winter Carnivals & Cultural Celebrations
19. First Peoples & Federation: Australia's Indigenous Heritage to Nationhood
20. Commonwealth Governance: Australia's Federal Parliament and States



21. Down Under Geography: Climate Zones, Biodiversity & Natural Resources
22. Australian Education & Research: Universities, TAFE and Innovation
23. Sporting Culture: Cricket, AFL, Surfing and the Anzac Spirit
24. Festivals & Cuisine: From Australia Day to Bush Tucker Traditions
25. Māori Roots & Colonial Legacy: New Zealand's Founding Story
26. Parliament, Governor-General & Treaty: NZ's Constitutional Framework
27. Aotearoa's Environment: Islands, Volcanoes & Conservation Efforts
28. Education in NZ: Kura Kaupapa Māori, Universities & Global Rankings
29. All Blacks & Beyond: Rugby, Adventure Sports & National Identity
30. Nuclear-Free and Peacekeeping: NZ's Global Role and Soft Power
31. Uzbekistan–UK Relations: Historical Ties, Trade & Cultural Exchanges
32. Uzbekistan–USA Partnership: Security Cooperation, Investment & Edu Links
33. Uzbekistan–Canada Collaboration: Development Aid, Research & Immigration
34. Uzbekistan–Australia Engagement: Agricultural Trade & Academic Partnerships
35. Uzbekistan–NZ Cooperation: Environmental Projects & Cultural Programs
36. Uzbekistan in the Anglosphere: Comparative Diplomacy & Future Opportunities

**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

• tili o'rganilayotgan mamlakatning tabiiy va ijtimoiy geografiyasi, iqtisodiyoti, siyosiy tuzumi; tili o'rganilayotgan mamlakatning etnik tarkibi, dini, madaniyati va sporti; tili o'rganilayotgan mamlakatning maishiy hayoti, bayramlari, urf-odatlari va xalqlarining ilmiy, madaniy meroslari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi; tili o'rganilayotgan mamlakatlarda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni; tili o'rganilayotgan mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy geografiyasiga oid bilimlarni; ***(bilim)***

• tizimi, xalqaro munosabatlari, ularning jahon hamjamiyatidagi geosiyosiy o'rni haqida gapira olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; xorijiy mamlakatlarning tarixiy rivoji va zamonaviyligi nuqtai nazaridan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning shakllanish masalalarini; tili o'rganilayotgan mamlakatlar haqidagi zarur ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalaridan topa olish;***(ko'nikma)***

• tili o'rganilayotgan mamlakatlar madaniyati va tarixi haqida kurs ishlari,